



EMPLOYMENT AND LABOR ISSUES IN BUKHARA REGION (2005–2007): AN ANALYSIS BASED ON DOCUMENTS FROM THE REGIONAL STATE ARCHIVES

Umidjon Khayrullayev

Lecturer at the Department of Foreign Languages and Social Sciences,

Asia International University;

PhD student at Bukhara State University

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: employment, job creation, Bukhara Region, home-based work, unemployment, labor resources, small business, vocational education, social protection, archival documents.

Received: 05.09.26

Accepted: 06.09.26

Published: 07.09.26

Abstract: This article analyzes the implementation of employment policy in Bukhara Region in 2005–2007 based on documents from Fund No. 1459 of the Bukhara Regional State Archives. The study examines the dynamics of new job creation, the development of the home-based work (home labor) system, the employment process for graduates of vocational education institutions, regional disparities, and measures aimed at providing employment opportunities for socially vulnerable groups. The analysis shows that, during the period under review, employment programs generally exceeded their planned targets; however, significant disparities between regions and economic sectors remained.

BUXORO VILOYATIDA AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH VA BANDLIK MASALALARI (2005–2007 YILLAR): VILOYAT DAVLAT ARXIVI HUJJATLARI ASOSIDA TAHLIL

Umidjon Xayrullayev

Osiyo Xalqaro universiteti “Xorijiy til

va ijtimoiy fanlar kafedra o‘qituvchisi,

Buxoro davlat universiteti doktoranti

Buxoro, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: bandlik, ish o‘rni, Buxoro viloyati, kasanachilik, ishsizlik, mehnat

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2005–2007-yillarda Buxoro viloyatida aholini ish

resurslari, kichik biznes, kasb-hunar ta'limi, ijtimoiy himoya, arxiv hujjatlari.

bilan ta'minlash siyosatining amalga oshirilishi Buxoro viloyat davlat arxivining 1459-fond hujjatlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda yangi ish o'rinlari yaratish dinamikasi, kasanachilik (uy mehnati) tizimining rivojlanishi, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish jarayoni, hududiy tafovutlar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni bandlik bilan ta'minlash chora-tadbirlari yoritilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'rib chiqilgan davrda bandlik dasturlari, umuman olganda, reja ko'rsatkichlaridan yuqori bajarilgan, biroq hududlar va tarmoqlar kesimida jiddiy tafovutlar saqlanib qolgan.

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ РАБОЧИМИ МЕСТАМИ И ЗАНЯТОСТИ (2005–2007 ГГ.): АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ ДОКУМЕНТОВ ОБЛАСТНОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО АРХИВА

Умиджон Хайруллаев

Преподаватель кафедры иностранных языков и социальных наук

Международного университета «Азия»;

докторант Бухарского государственного университета

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: занятость, рабочее место, Бухарская область, надомный труд, безработица, трудовые ресурсы, малый бизнес, профессиональное образование, социальная защита, архивные документы.

Аннотация: В данной статье на основе документов фонда № 1459 Бухарского областного государственного архива анализируется реализация политики обеспечения населения занятостью в Бухарской области в 2005–2007 гг. В исследовании освещаются динамика создания новых рабочих мест, развитие системы надомного труда, процесс трудоустройства выпускников учреждений профессионального образования, территориальные различия, а также меры по обеспечению занятости граждан, нуждающихся в социальной защите. Результаты анализа показывают, что в рассматриваемый период программы занятости в целом были выполнены с превышением плановых показателей, однако сохранялись существенные различия в разрезе территорий и отраслей.

Kirish. Aholini ish bilan ta'minlash masalasi har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda 2000-yillarning ikkinchi yarmida, ya'ni 2005–2007-yillarda, bandlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va aholining daromad manbalarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Ushbu davrda qabul qilingan "Bandlik-2005", "Bandlik-2007" kabi yillik dasturlar, shuningdek, kasanachilik (uy mehnati)ni rivojlantirishga qaratilgan maxsus qarorlar mamlakat mintaqalarida, jumladan, Buxoro viloyatida, bandlik siyosatining amaliy asosini tashkil etdi.

Buxoro viloyati o'zining demografik tuzilishi, qishloq joylarining ustunligi va mehnat zahiralarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari bilan ajralib turadi, bu esa mintaqada yangi ish o'rinlari yaratish masalasini doimiy dolzarb muammoga aylantiradi. Xususan, mehnat bozoriga har yili kirib kelayotgan yoshlar soni, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirish, shuningdek, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj toifadagi fuqarolarni bandlik bilan qamrab olish masalalari viloyat rahbariyati e'tiborida bo'lgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, 2005–2007-yillar oralig'ida Buxoro viloyatida amalga oshirilgan bandlik siyosatining natijalari, undagi yutuq va kamchiliklar hozirgi kungacha arxiv hujjatlari asosida yaxlit tarzda tahlil qilinmagan. Viloyat davlat arxivida saqlanayotgan hokimlik va Xalq deputatlari Kengashi sessiyalari materiallari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmasining hisobotlari mazkur davr bandlik siyosatini har tomonlama yoritish imkonini beruvchi boy manba bazasini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi – Buxoro viloyat davlat arxivi hujjatlari asosida 2005–2007-yillarda viloyatda amalga oshirilgan bandlik siyosati, yangi ish o'rinlari yaratish dinamikasi va bu boradagi asosiy muammolarni tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- 2005–2007-yillarda viloyatda yangi ish o'rinlari yaratish dinamikasini yoritish;
- kasanachilik (uy mehnati) tizimining rivojlanish jarayonini tahlil qilish;
- kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasini yoritish;
- hududlar kesimidagi tafovutlarni va ularning sabablarini aniqlash;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni bandlik bilan ta'minlash chora-tadbirlarini tahlil qilish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning manba bazasini Buxoro viloyat davlat arxivining 1459-fond, 1-ro'yxati ostida saqlanayotgan hujjatlar – viloyat hokimligi va Xalq deputatlari Kengashi sessiyalari materiallari, doimiy komissiyalar hisobotlari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmasining ma'lumotnomalari tashkil etadi. Mazkur hujjatlar 2005–2007-

yillarni qamrab olib, viloyatning barcha shahar va tumanlari kesimida bandlik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- tarixiy-qiyosiy metod – turli yillar va hududlar bo'yicha bandlik ko'rsatkichlarini qiyoslash orqali dinamikani aniqlash uchun;
- statistik-tahliliy metod – arxiv hujjatlaridagi raqamli ma'lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish uchun;
- xronologik metod – voqealar va dasturlar ijrosini yillar bo'yicha izchil tartibda yoritish uchun;
- tizimli yondashuv – bandlik masalasini iqtisodiyotning turli tarmoqlari (kichik biznes, kasanachilik, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohasi) bilan bog'liq holda yaxlit tizim sifatida o'rganish uchun.

Tahlil uchun asos bo'lgan hujjatlar birlamchi (original) arxiv manbalari bo'lib, ularda keltirilgan raqamli ko'rsatkichlar rasmiy hisobot xususiyatiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi. Maqolada arxiv hujjatlaridagi barcha raqamli ma'lumotlar asl manbaga muvofiq, o'zgartirishsiz keltirildi.

Natijalar. 2005-yilda bandlikni ta'minlash borasidagi dastlabki natijalar

2005-yilda Buxoro viloyatida belgilangan reja bo'yicha 2615 ta yangi ish o'rni yaratish mo'ljallangan bo'lib, haqiqatda 3490 ta ish o'rni tashkil etilgan, ya'ni reja 145 foizga bajarilgan. Mehnat bilan band bo'lmagan aholini ish bilan ta'minlash maqsadida yil davomida 5 marta mehnat yarmakalari o'tkazilib, ularda 126 kishi ishga joylashtirilgan, yana 182 kishiga kasbiy maslahat berilgan. Kichik biznesni rivojlantirish hisobidan 2087 ta ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 3096 taga yetkazib bajarilgan.

Shu yili ish so'rab joylardagi mehnat bo'limlariga murojaat etgan 1471 nafar fuqarodan 873 nafari (59,3 foiz) ishga joylashtirilgan. Ishga kirishni istovchi fuqarolar soni 2004-yilga nisbatan 223 nafarga ko'paygan bo'lsa-da, ish bilan ta'minlanganlar soni 21 nafarga kamaygan. Hisobot davrida tuman mehnat bo'limiga rasmiy murojaat qilgan 1471 fuqarodan 73 nafari ishsiz deb topilgan.

Umuman olganda, ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida aholining ish bilan bandligi darajasi izchil oshib borgan: shu davrda viloyatda jami 34 252 ta yangi ish o'rni tashkil etilgan bo'lib, bandlikni ta'minlashda amalga oshirilayotgan maqsadli kompleks dasturlarning o'rni tobora ortib borgan.

2007-yilda kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasi

2007-yilda Buxoro viloyati akademik litseylari va kasb-hunar kollejlari jami 11 148 nafar bitiruvchi tamomlagan, shundan 307 nafari akademik litsey, 10 841 nafari kasb-hunar kollejlari bitiruvchisi bo'lgan. Yo'nalishlar kesimida bitiruvchilar quyidagicha taqsimlangan: sanoat va transport yo'nalishi bo'yicha 3578, qishloq xo'jaligi bo'yicha 1052, qurilish bo'yicha 194, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalish bo'yicha 2381, ta'lim sohasi bo'yicha 1232, madaniyat va san'at bo'yicha 274, maishiy xizmat bo'yicha 572, tibbiyot yo'nalishi bo'yicha esa 1558 nafar bitiruvchi tayyorlangan. Hududlar kesimida eng ko'p bitiruvchi Buxoro shahrida (2175 nafar), so'ngra G'ijduvon (1312 nafar), Shofirkon (1123 nafar) va Kogon tumanida (991 nafar) qayd etilgan, 269 nafar bitiruvchi esa boshqa viloyatlardan bo'lgan.

Bitiruvchilarni ishga joylashtirish borasida Vasiylik kengashlari, hokimliklar, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'limlari bilan hamkorlikda bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Xususan, shahar va tuman hokimlari imzosi bilan maxsus sertifikat joriy etilib, u 11 200 nusxada hokimliklarga yetkazilgan, bitiruvchilar ro'yxati esa kompyuter va bosma shaklda hokimliklar hamda korxonalarga taqdim etilgan. Bitiruvchilarni ishga joylashtirish jarayoniga elektr tarmoqlari korxonalari, "G'arbgazta'minot", "Buxoro jamoa qurilish" uyushmalari, turizm, neft-gaz va transport tizimlari, madaniyat va sport boshqarmalari faol jalb etilgan, ko'plab tashkilot rahbarlari bitiruv imtihonlarida bevosita ishtirok etib, o'sha yerning o'zida bitiruvchilarga ish taklif qilgan. Natijada, 20-mart holatiga bitiruvchilarning atigi 32 foizining ish joyi aniqlangan bo'lsa, hisobot davri yakuniga kelib bu ko'rsatkich 61 foizga yetkazilgan, jumladan, 5772 nafariga hokim imzosi bilan sertifikat topshirilgan. Shunga qaramay, ishga joylashtirish borasidagi ko'rsatkichlar hali ham to'liq qoniqarli darajaga yetmagan.

Yilning umumiy yakunlariga ko'ra, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining bandlik darajasi 87 foizni tashkil etgan, 2189 nafari (19,6 foiz) oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirgan, 295 nafari (2,6 foiz) harbiy xizmatga jo'natilgan, 184 nafari o'z viloyatiga qaytgan, 1486 nafarining esa ish joyi hisobot davri oxirigacha noaniq bo'lib qolgan. Ish joyi noaniq bitiruvchilar eng ko'p Buxoro shahrida (696 nafar), G'ijduvon (189 nafar) va Jondor tumanida (128 nafar) qayd etilgan. Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, sanoat, transport, qurilish, maishiy xizmat, iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi sohalarida ishga joylashtirish muammosi deyarli bo'lmagan, chunki bu tarmoqlarda kadrlarga ehtiyoj yuqori bo'lgan, biroq ta'lim (74 nafar), tibbiyot (460 nafar) va madaniyat-san'at yo'nalishlarida bitiruvchilar soni ehtiyojdan ortiqcha bo'lgan.

Tahlil davomida bir qator muammoli holatlar ham aniqlangan: ayrim tuman va shahar Kengashlari bitiruvchilarni ishga joylashtirish masalasiga yetarli e'tibor bermagan, ayrim fermer xo'jaliklari va maishiy xizmat korxonalarida bitiruvchilarni rasmiy hujjatsiz ishlatish holatlari

qayd etilgan, bu esa nazorat organlaridan (soliq, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'limlari) qat'iy chora ko'rishni talab qilgan, shuningdek ish beruvchilarning xodimlarni faqat mutaxassisligi va tegishli hujjatlar asosida ishga qabul qilishi zarurligi ta'kidlangan. Alohida ta'kidlash joizki, 2007-yilda davlat qarovidagi 49 nafar litsey va kollej bitiruvchisidan 16 nafari oliy o'quv yurtiga kirish istagini bildirgan bo'lsa, ulardan faqat bittasi – Buxoro san'at kolleji bitiruvchisi Shukurov Nasulloning ish joyi hisobot davri yakunigacha noaniq bo'lib qolgan.

Kasanachilik (uy mehnati) tizimini rivojlantirish dasturi

Aholi bandligini, xususan, ayollar va nogironlarni ish bilan ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida kasanachilik (uy mehnati) tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 6-apreldagi 616-sonli qaroriga muvofiq, Buxoro viloyatida kasanachilik yo'nalishida jami 10 388 ta ish o'rni yaratish bo'yicha qo'shimcha dastur ishlab chiqilib, tasdiqlangan. Oktyabr oyi holatiga ko'ra dastur bo'yicha 9597 ta ish o'rni yaratilib, topshiriq 109 foizga bajarilgan, jumladan 5018 nafar ayol va 63 nafar nogiron kasanachilik ishlariga jalb etilgan, kasanachilarning o'rtacha ish haqi esa 40 000–50 000 so'mni tashkil etgan, o'n oylik reja umumiy yo'nalishlar bo'yicha ham bajarilgan.

Shu bilan birga, dastur ijrosida bir qator muammolar ham aniqlangan. Ayrim tumanlarda ko'rsatkichlar past bo'lib qolgan: Vobkent tumanida 43 foiz ("Midatex", Vobkentgaz, MTP davlat aksiyadorlik jamiyati korxonalarida) va Romitan tumanida 73 foiz ("Gazlinaqilgazishlabchiqarish", "Gazmagistralquvurlari", XKMK-9 korxonalarida). Viloyat bo'yicha jami 46 ta korxona (27-oktabr holatiga bu ko'rsatkich 28 taga kamaygan) dastur topshirig'ini umuman bajarmagan, jumladan Buxoro shahrida 10 ta, Jondor, Kogon, Vobkent, Shofirkon va Romitan tumanlarida 3 tadan korxona. Tarmoqlar kesimida "G'arbgazta'minot" unitar korxonasining Buxoro shahar, Vobkent va Jondordagi filiallari, shuningdek "O'zbektelekom" viloyat filialining Buxoro shahar, Jondor va Shofirkondagi bo'limlari topshiriqni bajarmagan. Bunga sabab sifatida korxonalarining moliyaviy qiyinchiliklari, kasanachilar ishlab chiqargan mahsulotni sotishdagi muammolar hamda tuman va shahar hokimliklari huzuridagi ishchi komissiyalarning qoniqarsiz faoliyati ko'rsatilgan. Umumiy xulosa shuki, viloyat bo'yicha rejalar bajarilgan bo'lsa-da, ayrim tuman va korxonalarda kasanachilikni rivojlantirish topshirig'i sust bajarilib, bu ayollar va nogironlarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini cheklab qo'ygan.

Yil davomida 27 272 nafar ishsiz fuqaro ishga joylashtirilgan bo'lib, bu jarayonda 83 marta mehnat yarmarkalari o'tkazilgan, ularda 2156 ta korxona va tashkilot jami 13 773 ta bo'sh ish o'rni bilan ishtirok etgan. Yarmarkalarda qatnashgan 6703 nafar fuqarodan 3150 nafari, shu jumladan 4453 nafar yosh ishga joylashtirilgan. Shuningdek, 778 nafar ishsiz fuqaro turli kasblar bo'yicha

kasb-hunar o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, kasbga o'qitish va qayta tayyorlash uchun Davlat jamg'armasidan 38 338,9 ming so'm mablag' sarflangan.

Kasanachilik yo'nalishida yil davomida ba'zi ijobiy natijalarga erishilgan: Buxoro shahri (105 foiz) va Olot tumani (106 foiz) topshiriqni ortig'i bilan bajargan. Shu bilan birga, viloyatning ayrim korxonalarida kasanachilik asosida ish o'rinlarini tashkil etishga umuman e'tibor berilmagan: xususan, Buxoro shahridagi 13 ta, Jondor, Romitan va Qorovulbozor tumanlaridagi bittadan korxonada reja bo'yicha belgilangan jami 48 ta kasanachilik ish o'rne yaratilmay qolgan. Viloyat bo'yicha 13 ta korxonada (shundan Buxoro shahrida 8 ta korxonada – 42 ta, Peshkuda 4 ta, Jondorda 1 ta korxonada) kasanachilik ish o'rinlari reja topshirig'iga nisbatan 29 taga (44 foiz) kam yaratilgan. "Buxoro-ipagi", "Buxoro-gilami", "Romitan-tola", "Vobkent-gaz" kabi korxonalarda, shuningdek Peshku tumanidagi "MTP" va Jondor tumanidagi "Paxta tozalash" aksiyadorlik jamiyatlarida kasanachilarga buyurtmalar bir me'yorda berilmagan va ularning ish haqi to'liq to'lanmagan, kasanachilik ish o'rinlari tashkil etilgan 60 ga yaqin korxonada esa ish haqi oyma-oy o'z vaqtida to'lanmasligi holatlari qayd etilgan.

Yil yakunlariga ko'ra, "Bandlik-2007" dasturi doirasida viloyatda jami 50,7 mingdan ortiq yangi ish o'rne yaratilib, dastur topshirig'i 106,1 foizga bajarilgan. Shundan uy mehnati, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish hisobidan 31,4 ming ish o'rne (jami yaratilgan ish o'rinlarining 70,0 foizi) tashkil etilgan, kasanachilik mehnatini rivojlantirish yo'nalishida esa 11 026 ta ish o'rne yaratilib, yillik topshiriq 106,2 foizga bajarilgan: shu jumladan yirik sanoat korxonalarida 3998 ta (108,0 foiz), boshqa tarmoqlardagi yirik korxonalarda 4607 ta (105,0 foiz), kichik sanoat korxonalarida 2421 ta (106,0 foiz) ish o'rne tashkil etilgan. Shu bilan birga, Buxoro shahri, Kogon va G'ijduvon tumanlarida chet el investitsiyalarini jalb etish hisobidan yangi ish o'rinlari yaratilishi yetarli darajada ta'minlanmagan: "G'arbgazta'minot" unitar korxonasi shahar filiali, shahar telekommunikatsiya bog'lamasi, "O'zneftgazaloqa" ishlab chiqarish boshqarmasi, "Bukhornur" korxonasi, shuningdek Peshku tumanidagi "Yo'l xo'jalik pudrat ta'mirlash foydalanish" korxonasi va "202-son xo'jaliklararo ko'chma mexanizatsiyalashgan kolonna" OAJda kasanachilikni rivojlantirish dasturi topshirig'i bajarilmay qolgan.

Kadrlarni ishga joylashtirishdagi muammoli holatlar

Olib borilgan ijobiy ishlarga qaramay, ayrim xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari raislari Kengashlarning imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanmagan, mahalliy Kengash deputatlarining ijro etuvchi hokimiyat faoliyatini nazorat qilishda deputatlik nazorati va deputatlik so'rovi kabi vositalardan foydalanishdagi jiddiy kamchiliklar dastur ko'rsatkichlarining bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Buxoro tumanidagi "Dehoji kapital qurilish" xususiy korxonasida 5 ta, "Yangi Turmush qurilish savdo" xususiy korxonasida 6 ta, Vobkent

tumanidagi "Quruvchi Usta Yarash" MChJda 13 ta, Jondor tumanidagi "Obod Ulka Qurilish Servis" MChJda 2 ta, Romitan tumanidagi "ROMTEXTTRANS QURILISH PLYUS" va "RAXMON-JUMA BUNYODKOR" MChJlarida 6 tadan, G'ijduvon tumanidagi "G'ijduvon Zarangari Qurilish" MChJda 10 ta ish o'rni yaratilmay qolgan. Ushbu holatlar barcha hududlarda uchragani hamda ayrim hollarda qabul qilingan qarorlarning amaliy ijrosida yetarli samaradorlik ta'minlanmaganini ko'rsatadi.

Muhokama va xulosa. Buxoro viloyat davlat arxivi hujjatlari asosida o'tkazilgan tahlil 2005–2007-yillarda viloyatda bandlikni ta'minlash siyosati izchil va bosqichma-bosqich rivojlanganini ko'rsatadi. Deyarli barcha yillarda yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha reja ko'rsatkichlari 100 foizdan yuqori bajarilgan – 2005-yilda 145 foiz, 2007-yildagi kasanachilik dasturi bo'yicha 109 foiz, "Bandlik-2007" dasturi bo'yicha 106,1 foiz, birinchi yarim yillikda esa 109,0 foizni tashkil etgan. Bu holat bandlik siyosatining barqaror amalga oshirilganidan va rejalashtirish tizimining nisbatan realistik asosga qurilganidan dalolat beradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'rib chiqilgan davrda ish o'rinlari yaratishning asosiy manbalari sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, shuningdek kasanachilik (uy mehnati) tizimi alohida ahamiyat kasb etgan. Xususan, 2007-yilgi tahlilga ko'ra kasanachilik va uy mehnati yo'nalishi yangi ish o'rinlari yaratishning eng katta yagona manbai (14 814 ta) bo'lgan, bu esa ayollar va nogironlarni ish bilan ta'minlashda ushbu mexanizmning strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kasanachilik tizimida ish haqini o'z vaqtida to'lamaslik, buyurtmalarni notekis taqsimlash kabi tizimli muammolar butun tahlil qilingan davr mobaynida takrorlanib turgani ham aniqlandi, bu esa mazkur sohada nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.

Hududiy kesimda tahlil G'ijduvon, Buxoro shahri va Jondor tumanlarida ishga muhtoj aholi soni doimiy ravishda yuqori bo'lganini, shu bilan birga aynan shu hududlarda (shuningdek Kogon, Olot, Qorako'l tumanlarida) chet el investitsiyalarini jalb etish va yangi korxonalarni ishga tushirish borasida ko'rsatkichlarning nisbatan past bo'lganini ko'rsatdi. Aksincha, Shofirkon tumani kasanachilik va uy mehnati yo'nalishida barqaror yuqori natijalarga erishgan hudud sifatida ajralib turadi. Bunday hududiy tafovutlarning saqlanib qolishi mahalliy hokimiyat organlarining investitsion muhitni yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj toifadagi fuqarolarni – nogiron bolali yolg'iz ota-onalar, ta'lim muassasalarini tamomlagan yoshlar, harbiy xizmatdan zahiraga chiqqanlar va jazoni o'tab chiqqan shaxslarni – kvota asosida ishga joylashtirish mexanizmi barqaror faoliyat yuritgani, biroq bu

mexanizm doirasida qamrab olingan fuqarolar soni umumiy ishsizlar soniga nisbatan cheklangan bo'lganini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida bir qator tizimli muammolar ham aniqlandi: ayrim korxonalarda reja bo'yicha belgilangan ish o'rinlari yaratilmasligi, mahalliy Kengashlar tomonidan nazoratning susayishi, ayrim hollarda qabul qilingan qarorlarning amaliy ijrosida yetarli samaradorlik ta'minlanmasligi, shuningdek ayrim hollarda fuqarolarning rasmiy hujjatlarsiz ishga qabul qilinishi kabi holatlar butun tahlil qilingan davrda takrorlanib turgan. Bu esa reja ko'rsatkichlarining yuqori bajarilishi ko'pincha miqdoriy ko'rsatkichlarga erishishga qaratilgan bo'lib, sifat jihatlari – barqaror ish haqi, mehnat sharoitlari, mutaxassislikka mos bandlik – ba'zan e'tibordan chetda qolganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, 2005–2007-yillarda Buxoro viloyatida bandlikni ta'minlash siyosati izchil davlat dasturlari asosida amalga oshirilib, umumiy miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha ijobiy natijalarga erishilgan. Biroq hududiy va tarmoq kesimidagi tafovutlar, kasb-hunar ta'limi tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi nomutanosiblik, shuningdek kasanachilik tizimidagi ijtimoiy-huquqiy kafolatlarning yetarli darajada ta'minlanmaganligi kabi muammolar davr davomida barqaror saqlanib qolgan. Ushbu xulosalar kelgusi tadqiqotlarda mazkur muammolarni yechishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini alohida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avcı R. Pan-Islamism and the Jihad Discourse of the German Orientalists in the First World War // *Al-Tamaddun*. – 2019. – Vol. 14. – No. 2. – P. 25–35. DOI: 10.22452/JAT.vol14no2.3.
2. Bayur Y. H. *Türk İnkılâbı Tarihi*. Cilt III. Kısım 3. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1958. – 639 s.
3. Hovannisian R. G. *Armenia on the Road to Independence*, 1918. – Berkeley; Los Angeles: University of California Press, 1967. – 364 p.
4. Kumuk C. *Deutschland und der Kaukasus. Die deutsche Kaukasuspolitik 1914–1918*. – Wien: Verlag für Geschichte und Politik, 1992. – 488 S.
5. Lepsius J. *Deutschland und Armenien 1914–1918. Sammlung diplomatischer Aktenstücke*. – Potsdam: Tempel-Verlag, 1919. – 541 S.
6. Lüdke T. (Not) Using Political Islam: The German Empire and Its Failed Propaganda Campaign in the Near and Middle East, 1914–1918 and Beyond // *Jihad and Islam in World War I: Studies on the Ottoman Jihad on the Centenary of Snouck Hurgronje's "Holy War Made in Germany"*. Ed. by Erik-Jan Zürcher. – Leiden: Leiden University Press, 2016. – P. 83–110. – 358 p.

7. Trumpener U. Germany and the Ottoman Empire, 1914–1918. – Princeton: Princeton University Press, 1968. – 288 p.
8. Zürcher E.-J. The Ottoman Jihad, the German Jihad and the Sacralization of War // Jihad and Islam in World War I: Studies on the Ottoman Jihad on the Centenary of Snouck Hurgronje's "Holy War Made in Germany". Ed. by Erik-Jan Zürcher. – Leiden: Leiden University Press, 2016. – P. 15–36. – 358 p.
9. Haus-, Hof- und Staatsarchiv (HHStA), Wien. Politisches Archiv (PA) XII, Karton 209. Pallavicini 66/P B an Burian. 13 August 1915.
10. Kreß F. Frhr. von. Mit den Türken zum Suezkanal. – Berlin, 1938. – 312 S.
11. Nogales R. de. Vier Jahre unter dem Halbmond. – Berlin, 1926. – 384 S.